

**TURKISTON O'LKASIDA JADIDCHILIK HARAKATI
NAMOYONDALARINING FAOLIYATI
(FARG'ONA JADIDLARI HAYOTI MISOLIDA)**

*Andijon davlat pedagogika insituti
O'zbekistonning eng yangi tarixi o'qituvchisi
Ilmiy rahbari: **Keldiyeva Shahnoza**
Andijon davlat pedagogika institutining
Matematika va informatika yo'nalishi 1- bosqich talabasi
Ne'matullayeva Xursanoy
Andijon davlat pedagogika institutining
Matematika va informatika yo'nalishi 1- bosqich talabasi
Ganijonova Ruxshona*

“Asrimiz boshlarida jadidlarning o'z hisobidan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar, teatrlar, ro'znomalar tashkil etganliklarini, darsliklar, qo'llanmalar nashr qilganliklarini, Turkiston bolalariga bepul tarqatganliklarini eslaylik”

Islom Karimov

Annotatsiya: XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rta Osiyo, Kavkaz, O'rta Sibir xalqlari orasida boshlangan milliy, madaniy-ma'rifiy tiklanish – jadidchilik harakati sifatida namoyon bo'ldi. Turkiston jadidlari xalqni qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariat tamoyillarini isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish va milliy muxtoriyatga erishish g'oyasini ilgari suradilar. Jadidlar milliy birlik, ma'naviy-ma'rifiy isloxotlar bilan jamiyatni yangilash, yuksaltirish yo'llarini izlaganlar. Ushbu maqolada yuqorida muallif tomonidan qayd etilgan fikrlar xaqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifat, usuli jadid, milliy ko'tarilish, matbuot, muxtoriyat, milliy g'oya, “Behbudiya”, “To'ron,” ibratxona, “Munozora”.

Jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy yangilashdan ko'zlangan bosh maqsad - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, diniy bag'rikenglik kabi ko'pdan-ko'p muhim masalalardan iborat. Bizga ma'lumki, tarixda ko'plab davlatlar va sulolalar hukm surgan. Ular ma'lum tarzda o'zlarini ma'rifiy-ma'naviy merosini qoldirgan. Xususan, O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqtni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lgan davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga

oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lda e'tiborga molik katta ishlarni bajardi. Ma'lumki, "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" ma'nolarini anglatadi. Insoniyat tarixida biror makon va zamon bo'lmaganki, jamiyatning bir maromda kechayotgan hayotiga kirib kelgan yangilik katta qarshilikka uchramagan bo'lsin. Jamiyat va inson hayotining bir maromda kechishi, ertami-kechmi, tanazzulga olib boradi. Shuning uchun ham xalqning peshqadam ziyolilari jamiyat va inson hayotida kecha boshlagan tanazzulga qarshi kurashish yoki uning oldini olish uchun yangig'oyalarni "ishlab chiqishadi". Ammo shu tanazzulning "issiq bag'ri" da yashayotgan shunga ko'nikma hosil qilgan ayrim kishilar bu hayotbaxsh g'oyalarni nayza bilan qarshi olishadi. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida O'rta Osiyoda shunday holat yuz berdi. Turkiston, Buxoro va Xivada, shuningdek, ayrim xorijiy Sharq mamlakatlarida junbishga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati katta to'siqlarga uchradi. Bugun biz, oradan 100 yil o'tganidan keyin, Turkistonda M. Behbudiy rahbarligida yuzaga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati tarixini o'rganganimizda, ularning qanday murakkab sharoitda yangi maktablarni ochgani, milliy matbuotga asos solgani, yangi badiiy adabiyot va teatr san'atiga tamal toshini qo'yganini o'ylasak, ularning bu faoliyatlarini fidoyilik va jasorat deb baholash lozim bo'ladi. Millat ma'naviyati va madaniyatini saqlab qolish va uni yanada yuksaltirish uchun jadidchilar olib borgan faoliyatni o'rganish manbalar, hujjatlar asosida xolisona ob'ektiv tahlil etilgandagina oydinlik kiritish mumkin. Shu o'rinda Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirib o'tish joiz: «...biz davlatimiz kelajagini o'z qobig'imizga o'ralib qolgan holda emas, balki umumbashariy va demokratik qadriyatlarni chuqur o'zlashtirgan holda tasavvur etamiz. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson xuquq va erkinliklarini, fikrlar rangbarangligini o'z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko'ramiz. Biz butun ma'rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o'zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida siyosiy, madaniy, iqtisodiy jixatdan inqiroz xolatiga tushib qolgan, mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralarini ko'rdi. Bu borada jadidchilik xarakati katta rol o'ynadi. Turkistonning asl farzandlari bo'lmish jadidlar o'zlari uzoq yillar g'oyaviy jihatdan tayyorlagan milliy ozodlik qo'zg'oloniga ozlari rahbarlik qildilar. Jadidchilik rus mustamlaka siyosatiga qarshi milliy demokratik xarakat bo'lib, u o'sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma'rifatlashtirish, jamiyat xayotida ijtimoiy va madaniy isloxotlar o'tkazish, pirovardida milliy mustaqillik g'oyalarini xayotga tadbic

etish maqsadini o'z oldiga qo'ygan edi. Jadidchilik avvaliga madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish, hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g'oyalarini targ'ib qilishgan. Jadidchilik mohiyatan, avvalo, siyosiy harakat edi. Turkiston mintaqasida jadidchilik xarakati, tarqalish joyi va yo'nalishiga ko'ra uchga bo'linadi; Turkiston, Buxoro, Xorazm jadidchiligi. Turkiston jadidlari bilan Buxoro va Xiva jadidlari o'rtasida bir muncha tafovut bor. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning ijtimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizmning xomashyo manbaiga aylanayotgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar. Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullavachchalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimiylar oqimi qarshi chiqdi. 20-asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiylarga bo'lingan edi. 1908-yil Buxoroi sharif shirkati darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Po'latxo'jayev (Usmon Xo'ja), Homidxo'ja Mehriy, Abdulvohid Burhonov, Abdulqodir Muhiddinov, Sadridin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy shirkatning tashkilotchilari edi. 1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda Tarbiyai atfol („Bolalar tarbiyasi) maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati o'limiga o'qishga jo'natdi. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi. XX asr boshlarida Xivada shakllangan jadidchilik bir qadar boshqacharoq tarixiy shart-sharoitda vujudga keldi. U bu yerda asosan ikkita oqimdan iborat edi. Uning o'ng oqimi xonlikda rivojlanayotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillarini o'ziga birlashtirgan edi. Bu oqimga Xiva xoni

Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. Jadidchilikning o'ngoqimi o'z oldiga mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar o'tkazish orqali erkin bozor munosabatlarining rivojlanishiga keng yo'l ochib berishni maqsad qilib qo'ygan edi. Xivada jadidchilikning so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar, hunarmandlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib, qozikalon Boboovun Salimov uning rahbari edi. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligini o'stirish maqsadini qo'yishgan edi. 1904-yil „jamiyati xayriya tuzilib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi (1904-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalanib qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadidlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90-yillaridan yoyila boshladi. Bu xarakat XX asrning 30-yillari oxirlarigacha o'lka ijtimoiy-siyosiy xayotida muxim rol o'ynadi. Bugungi kunda respublikamiz tarixchi olimlari jadidchilik xarakatida quyidagi uchta bosqichni farqlashmoqda: 1) XIX asr oxirlaridan 1915 yilgacha - ma'rifatchilik; 2) 1915 yildan 1918 yil fevraligacha - muxtoriyatchilik; 3) 1918 yil fevralidan 20 yillar oxirlarigacha - sovetlar davridagi faoliyati. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo'ldi. Uning asoschisi diniy-dunyoviy ilmlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali (1851-1914) bo'ldi. Ismoilbek 1884 yilda jadid maktabi tashkil etib, 40 kunda 12 bolaning savodini chiqaradi. Uning o'qitish usuli «usuli savtiya», ya'ni «tovush usuli» nomi bilan shuxrat qozondi. Jadid» arabcha so'z bo'lib, «yangi» degan ma'noni bildiradi. Mashhur jadidshunos olim, professor Begali Qosimov «Milliy uyg'onish» deb nomlangan kitobida «jadidchilik» istilohining kelib chiqishi haqida to'xtalib, shu munosabat bilan uning mohiyati to'g'risida ham fikr bildiradi: «Jadidchilikning» asosida «jadid» so'zi yotadi. «Jadid» ning ma'nosi «yangi» demakdir. U shunchaki «yangi» yo bo'lmasa, «yangilik tarafdori» degani emas. Balki «yangi tafakkur», «yangi inson», «yangi avlod» singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan 2 . Ismoilbek g'oyalarini qabul qilgan yangilik tarafdorlari «jadidlar», uning g'oyalari esa «jadidchilik» nomini oldi. Ismoilbek Gaspirali darslik yaratadi, o'zining «Tarjimon» (1883-1914) gazetasini tashkil etib, jadidchilikni turkiy xalqlar orasida keng targ'ib qiladi. Bu gazeta Toshkent va boshqa shaxarlarga xam yoyiladi. I. Gaspirali 1893 yilda Markaziy Osiyoda bo'ldi. Buxoroda amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi. Bu maktabga «Muzaffariya» nomi beriladi. Shu tarzda asta sekinlik bilan maktablar tashkil etila boshlagan. Endi asosiy e'tiborni ularning g'oyalariga va yo'nalishlariga qaratsak. Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iborat bo'lgan: 1. Yangi usul maktablari tarmog'ini

kengaytirish. 2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish. 3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, xamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish. Shu dasturni amalga oshirish borasida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev, Abdulla Avloniy, Abdulxamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdi. Yangicha o'qitish musulmon bolalariga qisqa vaqt ichida dunyoviy, diniy ta'lim berish dasturi asosida olib borildi. Bu dasturga ko'ra maktablarda o'qitish tizimi ikki bosqichdan iborat bo'lgan. Birinchi bosqich ibtidoiy qism deb atalib, uning taxsil muddati 4 yil bo'lgan. Birinchi bosqichni tugatgan shogird eski maktabda 10 yil o'qigandan ko'ra yaxshiroq savod chiqargan. Ikkinchi bosqichni muvaffaqiyatli tugatgan shogird arabcha, forsha, turkiy tilda bemalol so'zlashib, ruschada erkin gaplasha olar edilar. Jadidlar asarlarida ijtimoiy-madaniy g'oyalar va ularning mazmun mohiyati. Har bir davrda biror yangi g'oyaning tug'ilishi aniq tarixiy sharoitda sodir bo'ladi. Unda tarixiy shaxslarning o'ynaydigan rolini hech kim inkor etmaydi. Chunki ular yetilgan muammolarni hal qilish yo'llarining nazariy tomonlarini barchadan teranroq idrok qiladi, ularni amalga oshirishga favqulodda kuch va g'ayrat bilan kirishadilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining bilimdon mutaxassisleri, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va Vatanni mustaqil ko'rishni orzu qildilar va shu yo'lda fidoiylarcha kurashdilar. Jadidlarning Turkiston mustaqilligi uchun kurashida asosan quyidagi yo'nalishlar ustuvor edi: Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish; Qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish; Turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr gruppalari tuzish; Gazeta va jurnallar chop qilish; Xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish. Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi: - Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod qilish; - shariatni isloh qilish va xalqqa ma'rifat tarqatish; - Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash; - Buxoro va Xivada konstitutsion monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish; - barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzish Umuman olganda, asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakati g'oyalari Turkiston halqlarining milliy ozodlik, mustaqillik uchun dastlab chor Rossiyasi, so'ngra sovet mustamlakasiga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu mustamlakachilik mohiyatini Turkiston o'lkasi general gubernatorlaridan biri Kuropatkinning o'z kundaliklaridagi qaydlari, biz Turkiston xalqlarini yarim asr mobaynida jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan chetda tutib turdik, qabilidagi so'zlari yaqqol anglatadi. Lekin, ayni paytda, rus taraqqiyparvar ziyolilari orqali rus va jahon ilm-fani va madaniyati chor ma'muriyati to'siqlari orasidan Turkistonga sizib kirar edi. Shu ijobiy ta'sir asta-sekinlik bilan mazlum Turkistonda yangi Uyg'onish

davrini boshlab berdi. Mahalliy ziyolilar orasida o'z xalqini ozod ko'rishga va jahonning boshqa millatlari bilan tenglasha oladigan darajaga olib chiqishga intilish natijasida bu Uyg'onish Yevropa ma'rifatchiligiga nisbatan juda shiddatkor hamda miqyosli bo'ldi. Shuningdek, O'rta asrlar o'rtaga tashlagan ma'rifatparvarlik g'oyalari uchun ham endilikda amaliy shakllarda yangicha - ma'rifatchilik tarzida namoyon bo'lish imkoniyati yaratildi. Zero, o'sha g'oyalarni yangilangan shakllarda amalga oshira oladigan ziyolilar vujudga kelgan edi. Ularni keyinchalik jadidlar deb atay boshladilar. Ma'rifatchilik g'oyalari asosan uch soha orqali taraqqiy topib bordi. Bular - maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) va matbuot. Pirovard maqsad millatni, bir tomondan, ilmi-ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida o'zligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston ma'rifatchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi³. Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) turardi. Turkiston jadidlari, ayniqsa, birinchi jahon urushi davrida o'z faoliyatini kuchaytirdi. Taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarining yetakchisi A. Ubaydullaxo'ja 1913 yil Andijonda «Taraqqiyparvar» deb nom olgan ziyolilarning firqasini tuzadi va 1914 yildan nashr etilgan «Sadoi Turkiston», «Sadoi Farg'ona» gazetalari firqaning asosiy targ'ibot kuchi edi. Jadidlarning 1916 yil mardikorlikka olish voqeasiga munosabati g'oyatda e'tiborga molikdir. Mardikorlikka jo'natish haqidagi oq podsho farmoni (1916 yil 25 iyun) ni bekor qildirish uchun Asadullaxo'jaev Ubaydullaxo'ja rus revolyutsioneri – demokrati V.A. Chaykin bilan birga mahalliy millatparvar boy Mirkomil Mirmo'minboevning mablag'i, xomiyligida Peterburgga bordi. Davlat dumasining 1916 yil dekabrda majlisida farmon Rossiya imperiyasining qonunchiligida ko'rsatilgan hollarga zid ravishda qabul qilingani isbotlab berildi. Unda asosiy rollarni Munavvarqori Abdurashidxonov va Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jalar bo'lib, amalda ular ham faol bo'lib, rus mustamlakachilarining kirdikorlarini fosh qildilar. shuning uchun ham ular maslakdoshlari bilan shovinistlar qahriga uchradilar. Chunki jadidlar ularning asl niyat va maqsadlarini ochib tashlashga qodir kishilar edilar. Jadidlarning

yetakchi rahbarlaridan Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jaev mustamlaka ma'muriyatini fosh etishda katta xizmat ko'rsatdi. 1916 yil iyul oyida Andijon jamoatchiligi tomonidan Petrogradga vakil qilib jo'natilgan Vadim Chaykin va Ubaydullaxo'ja IV Davlat Dumasida Turkistonda ro'y bergan voqealarni izohlab berdilar. Shundan so'ng Davlat Dumasi a'zolaridan Raevskiy Vinogradov, Tavakkalov 21 iyul kuni oliy bosh qo'mondonlik qarorgohiga - harbiy vazir nomiga telegramma jo'natdilar. Telegrammada turkiston o'lkasining rus aholisi harbiy majburiyatdan ozod etilgani holda mahalliy aholidan mardikor olish siyosiy va iqtisodiy jihatdan xatarli ekanligi uqtirildi⁴. Farmon Dumada muhokama kilingunga qadar iyun – avgust oyida jadidlar harakati orqali bir necha eshelon to'xtatib qolindi. Jadidlarning mardikorlarni qaytarishga urinishlari 1917 yil fevral inqilobi boshlanishi bilan to'la amalga oshdi. Bu hodisa el orasida ularning obro'sini ko'tardi. Mazkur holat jadidlar ma'rifatparvarlikdan siyosiy kurashga allaqachon o'tganliklarini bildirar edi. 1917 yildan jadidchilik harakati o'zining yangi bosqichiga qadam qo'yishini bildirar edi. Shunday qilib, jadidlar xalq milliy – ozodlik harakatiga g'oyaviy mafkuraviy va tashkiliy rahbarlik qilishga muvaffaq bo'ladi. Bu esa jadidchilik, bu davrga kelib Turkistonda katta ta'sirchan ijtimoiy – siyosiy kuchga aylanganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T-2008. 125 b.
2. H. Sodiqov, R. Shamsidov, P. Shavshanov, Q. Usmonov. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T-2000 420-450 b.
3. Hasanov B. Karimov N. Jadid marifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari. T-2016 6-9 b.
4. Qosimov V. va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. T-2004 67 b.
5. Nosirov O. Ma'murov M. O'zbek adabiyotchining muhim sanalari. - Namangan: 1993. - B. 124.